

POMIDORNING MEVA SHAKLLARIGA SUV VA TUPROQNING TA’SIRI QANDAY?

G‘ofurova Shoira Qandahar qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Arzibayeva Sevara Boburjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda Pomidor mevalari shakllanayotgan davrida tuproqning namligi xavoning nisbiy namligini bo‘lishini aniqlash bilan bir qatorda,

Ko‘chatidan yetishtiriladigan pomidorning ildiz tizimi tuproqning yuza qatlamiga joylashishi va suvni ko‘p parlantirishi, uni mutazam ravishda suv bilan ta’minlanishi o‘rganishdan iborat..

Kalit so‘z: pomidor, tomatdosh, urug‘, nav, suv, par, ildiz, havo, tuproq, kasallik, iqlim.

Annotation. During the period of formation of tomato fruits, soil humidity is 75-80%, relative air humidity is 45-60%. Excessive air humidity has a negative effect on the pollination process, the formation of knots and the increase of damage by fungal disease.

When grown from a seedling, the root system is located in the surface layer of the soil and requires a lot of water, it needs to be regularly supplied with water.

Keywords: tomato, tomato, seed, variety, water, feather, root, air, soil, disease, climate.

Аннотация. В период формирования плодов томата влажность почвы 75-80%, относительная влажность воздуха 45-60%. Чрезмерная влажность воздуха негативно влияет на процесс опыления, образование узлов и увеличение поражения грибковыми заболеваниями.

При выращивании из саженца корневая система находится в поверхностном слое почвы и требует много воды, ее необходимо регулярно снабжать водой.

Ключевые слова. помидор, томат, семя, сорт, вода, перо, корень, воздух, почва, болезнь, климат

Kirish. Respublikamiz qishloq xo‘jaligi vazirligining bergan tezkor ma’lumotiga ko‘ra 2021 yilda sabzavotdan 11 mln. 275 ming tonna yalpi hosil yetishtirilib, ular bir iste’molchiga 325 kg dan to‘g‘ri keladi. Bu, albatta marra emas, chunki respublikamiz axolisi tobora ko‘payib borishi bilan birga qayta ishlash korxonalari hamda mamlakatimiz eksport potentsiali jadal sur‘atda rivojlanishi sabzavot ishlab chiqarishni ko‘paytirishni taqozo etmoqda. Shuning uchun sabzavot yetishtirish-ishlab chiqarish hajmi yil sayin ko‘payib bormoqda.

Sabzavot ekinlaridan olingan yalpi hosil tarkibida pomidordan olingan mahsulotning ham uz urni bor.

Pomidordan jaxonda 4 mln. 72 ming ga maydonda yetishtirilib undan 159 mln. 23 ming tonna yalpi hosil olinadi. Hosildorligi 27,2 t/ga ni tashkil etadi deb xabar qiladilar X.X.Kimsanboyev va boshqalar (2007).

Mutasaddi tashkilotlarning tavsiyasiga ko‘ra o‘rta yoshdagi inson yil mobaynida pomidor mevasidan 25 kg iste’mol qilishi kerak.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Pomidorni yetishtirishda oziqlanish maydoni, ekish sxemasi va ekish muddati hamda mahsuldorlik belgilarini taqqoslab o‘rganish. Tadqiqot jarayonida dala tajribalari natijalarini taxlil qilishda mavjud metodik materiallar qo‘llanildi. Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar, biometrik o‘lchamlar olib borildi, mevalarining texnik va biologik yetilishi o‘rganildi.

Pomidorni serhosil navlarini tanlash hamda ekish sxemasini aniqlash ishning nazariy va amaliy ahamiyati hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayonida dala tajribalari natijalarini taxlil qilishda mavjud metodik materiallar qo‘llanildi. Dala tajribalarida fenologik

kuzatuvlar, biometrik o‘lchamlar olib borildi, tuproq iqlim sharoitiga qanday moslashib borilishi hamda sabzavot ekinlarining texnik va biologik yetilishi o‘rganildi.

Asosiy ekinda pomidorning hosildorligi yuqori formalarini ajratib olish, ekish sxemalarini qiyosiy baxolash orqali yetishtirish texnologiyasini ilmiy asoslash tajribaning natijalariga o‘z tasirini ko‘rsatadi

Muhokama. O‘simlikni suvga bo‘lgan talabini qondirishda ildiz tizimi faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. O‘suv davrining birinchi yarmida pomidor ildizi jadal rivojlanib, tuproqning chuqur qatlamiga o‘sib kiradi. Bu xususiyati 4-5 gulshodasidagi g‘unchalari gullay boshlagunicha va o‘simlikni pastki gulshodada hosil bo‘lgan mevalari pishguncha davom etadi. Shu davrdan so‘ng ildizlari umumiy xajmini faol ishlashi susayar ekan. Ammo, pastki qismidagi pishgan mevalari yig‘ib olinganidan so‘ng, ildiz tizimini faoliyati yana kuchayar ekan.

Pomidor mevalari shakllanayotgan davrida tuproqning namligi 75- 80%, xavoning nisbiy namligini 45-60% bo‘lishini yoqtiradi. Havoning namligini me‘yordan ortib ketishi changlanishi jarayoniga salbiy ta‘sir etib, tugunchalari tugiladi va zamburug‘ kasalligi bilan zararlanishi kuchayadi.

Ko‘chatidan yetishtirilganda ildiz tizimi tuproqning yuza qatlamiga joylashishi va suvni ko‘p porlantirishi, uni mutazam ravishda suv bilan ta‘minlanishi talab etadi.

Pomidor tuproqdan oziq moddalarni ko‘p o‘zlashtirish jixatidan, sabzavot ekinlari qatorida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi. U gektardan 100 ts hosil bersa, u o‘zi bilan 33 kg azot, 10-11 kg fosfor va 50 kg kaliyni olib ketadi.

Xulosa. Pomidor o‘suv davri uzoq muddat davom etadi. Uni uzun yoki qisqa bo‘lishi pomidor o‘stirilayotgan viloyat yoki tumanda sovuqsiz davrga bog‘liqdir. Shular sababli pomidor yetishtirilganida uni o‘stiriladigan mintaqaga sharoitidan kelib chiqqan holda ertaki yoki kechpishar navlarni tanlab ekish, tabiiy sharoitdan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.

2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo‘jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik.Navro‘z.- Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet

3. Ostonaqulov. O‘zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro‘z-Toshkent: 2020- 324 bet